IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

SAMARQANDDAGI ILK JADID MAKTABI XUSUSIDA

S.Ahatova
2-bosqich talabasi
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
t.f.d., **G.Normurodova**
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20630961

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston jadidchilik harakatining ma'rifatparvarlik bosqichi doirasida yangi usul maktablarining vujudga kelishi va rivojlanishi masalasi tahlil etilgan. Xususan, Samarqandda 1893-yilda Ismoil Gaspirinskiy tashabbusi va Abdulg'aniboy Husayinov ko'magida tashkil etilgan ilk usuli jadid maktabining faoliyati, uning Turkiston ta'lim tizimidagi o'rni hamda keyingi jadid maktablari taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, Abdulqodir Shakuriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy Ajziy kabi taraqqiyparvarlarning yangi usul maktablarini tashkil etish va rivojlantirishdagi xizmatlari manbalar asosida tadqiq etilgan. Maqolada Samarqand jadid maktablarining Turkistonda zamonaviy milliy ta'lim tizimi shakllanishidagi tarixiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, usuli jadid, usuli savtiya, Ismoil Gaspirinskiy, Samarqand, jadid maktablari, Abdulqodir Shakuriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, ma'rifatparvarlik, milliy ta'lim, Turkiston, ta'lim islohoti.

Turkistonda jadidchilik harakati o'z tarixida ikki, ma'rifatparvarlik va siyosiy bosqichlarni bosib o'tgan. Birinchi tanlangan maqsadga ehtiyoj - bu Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangan Turkiston o'lkasining og'ir ijtimoiy-siyosiy ahvoli, iqtisodiy turg'unlik va madaniy qoloqligi sharoitida milliy taraqqiyparvar - jadidlarning jahon taraqqiyoti tajribasidan foydalanib, bu holatdan chiqish yo'llarini izlab topishdan iborat edi. Bu bosqichda, dastlab, milliy ta'limni isloh etish vazifasi qo'yildi. Xo'sh, shu o'rinda o'lkada dastlabki jadid, ya'ni yangi usul maktablari dastlab qachon va qaerda tashkil topgan, degan savol tug'iladi. Turli adabiyotlarda bu haqida qayd etilgan qarashlarning xilma-xilligi, ayrimida bir-birini inkor etish holati mavjud

Endi bu ma'lumotlarga yuzlanadigan bo'lsak, Turkistonda dastlabki jadid, ya'ni yangi usul maktablari, birinchi bo'lib 1893-yili Samarqandda A. Husayinov mablag'i hisobiga ochilgan, deb yoziladi[1]. Xudoyqulov ishida, dastlabki jadid maktablari 1898-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, 1899 yilda Toshkentda Mannon Qori va shu yili Andijonda Shamsiddin domlalar tomonidan ochilgan, deyiladi[2].

Agar Samarqandda 1893-yilda A. Husayinov mablag'i bilan ochilgan yangi usul maktabi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu maktab aslida Ismoil Gaspirinskiy sayi-harakati bilan bog'lanadi. Ma'lumki, "tovush usuli"dagi yangi usul maktabini Gaspirinskiy ilk bor 1884-yilda Qrimda, Bog'chasaroyda tashkil etgan edi. Bu uslub xususiyatlari Evropadan namuna olinib, milliy uslubda joriy qilingan edi[3].

1893-yilda Gasprinskiy avval Buxoro, keyin Samarqandga kelgan vaqtida bu erdagi ziyolilar bilan uchrashadi. Xususan, o'sha payt u tatar boylaridan bo'lgan Abdulg'aniboy Husayinov uyida mehmon bo'ladi. Uchrashuvda Gasprinskiydan "*...sayohatingizning bir*

[1]Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. 1-қисм. –Тошкент:: Шарқ, 2000. – Б. 269.

[2] Худойкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец ХГК-начало лХ вв.). Дисс.канд.ист.наук.-Ташкент, 1995. С.78.

[3] Абдурашидов З. Исмоил Гаспиринский ва Туркистонда жадидчилик // "ИФЕАКнинг иш юритиш ҳужжатлари" серияси. 29-сон,Тошкент-2008. Б.14.

nishonasi sifatida bu shaharda usuli savtiyani ko‘rsatishingiz kerak”, - deb iltimos qilingan edi. Shu taklif asosida uning shogirdi toonidan yangi usul maktabi tashkil etiladi. Shunday qilib, Ismoilbek Gaspralining safari tufayli 1893-yilda Samarqandda “usuli savtiya” maktabi faoliyat ko‘rsata boshladi. Ushbu maktab Turkistonda ochilgan ilk “usuli jadid” maktabi edi.

Afsuski, bu maktab norasmiy tarzda ochilgani uchun ham rus ma’murlari tomonidan maktab bor yo‘g‘i 3 oy faoliyat ko‘rsatgandan so‘ng yopilgan. Samarqanddagi bu maktab keyingi yangi usul maktablari uchun namuna vazifasini o‘taydi. Shunday jadid maktablaridan biriga A.SHakuriy tomonidan asos solingan. Taniqli olima Dilorom Alimova o‘z ishida, Samarqanddagi ilk jadid maktabi mahalliy taraqqiyparvar Abdulqodir SHakuriy tomonidan 1901-yilda tashkil etilganligini to‘g‘ri ta’kidlaydi[4].

Z.Abdurashidov tadqiqotida qayd etilishicha, “*Samarqand shahrida 1893 yili ochilgan birinchi namuna maktabi “paydo bo‘lganidan bir qancha yillar so‘ngra ulamoi kiromdan mufti Mahmudxo‘ja Behbudxo‘ja o‘g‘li, savdogar Boyazidov janoblari va mahalliy yoshlardan mulla Abdulqodir Shakuriy afandilarning himmati maorifparvaronalari soyasida ikkinchi yangi maktab tavallud etdi*”. Bu Abdulqodir Shakuriyning maktabi edi. Gasprinskiy bu maktabni “mujohid, fidoyi maktab”, - deb ta’riflagan[5].

Ushbu maktab xususida M.Behbudiy ham, “SHakuriy tomonidan Rajabaminda o‘z uyida ochilgan yangi usul maktabi, ... bu maktabga dastlab samarqandlik, keyin toshkentlik no‘g‘aylar, ya’ni tatarlarning moddiy yordam bergani”ni eslatadi[6]. Bu yuqorida ta’kidlanganidek, o‘lkadagi dastlabki yangi usul maktablarini tarqatishda tatar ziyolilarining munosib o‘rni bo‘lsa, boshqa tomondan ularning moddiy jihatdan ta’minlashda ham xizmati munosib bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, rus hukumati mahalliy xalqni ruslashtirishda asosiy vosita deb qaragan rus-tuzem maktablariga zo‘r bergan. SHu bois, Turkistonda yangi usul maktablarini ochish oson kechmagan. Bir tomondan musulmon mutaassiblari, ikkinchi tomondan mahalliy rus ma’murlari to‘sqinlik qilgan. 1911-yilga kelib, Turkistondagi yangi usuldagi maktablar soni 63 ta bo‘lib, unda o‘qiydiganlar soni 4106 tani tashkil etgan[7].

Zamonaviy milliy ta’limga asos sifatida Samarqandda tashkil etilgan yangi usul maktablarida to‘plangan tajriba, keyinchalik Turkistonning boshqa viloyatlari, Buxoro maktablari amaliyotida qo‘llanildi. Abdurauf Fitratning «Hind sayyohining hikoyalari» kitobida ham qahramon tilidan «Samarqandda bir necha maktablar bo‘lib, ular ichida eng yaxshisi SHakuriy maktabidir...»[8], deb ta’kidlangan edi. Bunday ta’lim dargohlarining muvaffaqiyati xususida o‘sha davr matbuot nashrlarida yoritilib borilgan. Xususan, “Samarqand” gazetasida bu haqda: “bir yil mobaynida o‘qib, bilim olgan o‘quvchilardan ota-onalari juda xursand bo‘lishgan”[9] deyilgan edi.

Samarqandlik taraqqiyparvarlar xalqni ma’rifatli qilish va ta’limni isloh qilish yo‘lida jadid maktablari tashkil etishni davom ettirdi. 1901 yili samarqandlik shoir Saidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927) Halvoyi qishlog‘ida yangi usulda maktab ochdi[10]. 1903-yilda Hoji Muinning Xo‘ja

[4] Алимова Д. История как история, история как наука. Феномен джадидизма. II том.-С.164.

[5] Абдурашидов З. Исмоил Гаспиринский ва Туркистонда жадидчилик // “ИФЕАКнинг иш юритиш ҳужжатлари” серияси. 29-сон,Тошкент-2008. Б.35.

[6] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Самарқанд усули жадид мактаби хусусида. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент: Academnashr, 2018. – Б.230-231.

[7] История общественно-культурного реформаторства в Центральной Азии и на Кавказе (XIX – начало XX века). МИЦАИ. Самарканд-Ташкент- 2012. -С.168.

[8] Фитрат Абдурауф. Рассказы индийского путешественника (Бухара, как она есть). –Ташкент, 2007. – С. 77.

[9] Новометодный мактаб в г. Самаркандъ // Зерафшан газета: Самаркандъ. 1906. – № 37.

[10] Қосимов Б. Маслакдошлар.Т.: Шарқ, 1994, 47-бет.

Nisbatdor mahallasida yangi usul maktabi ochilgan. Chunonchi, 1905-yilda Xoji Mahmud tomonidan Kaftarxonada yangi usul maktabi ochilgan. Bir gazeta muxbirining ta'kidlashicha, bir yil mobaynida o'qib, bilim olgan o'quvchilardan ota-onalari juda xursand bo'lishgan[11]. Mahmudxo'ja Behbudiy ham 1903 yili o'z mablag'i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. Hoji Muin va Abdulqodir SHakuriylar bu maktabda saboq berdilar. M.Behbudiy bir necha bunday yangi maktablarni tashkil qilishda bosh-qosh bo'ldi. U Samarqandda 1908 yilda Turkistondagi ilk bor musulmonlar uchun bepul qiroatxona ochib, o'z mablag'i hisobiga uni boyitib boradi[12]. Saidahmad Vasliy (1869/70-1925) ham Qo'shhovuz mahallasida maktab tashkil etgan. YAna bir manbada, 1909 yilda Samarqand shahrida Naim SHukurillaev ham yangi usuldagi maktab ochgan[13].

Qisqa xulosa qilib aytganda, Turkiston o'lkasida ilk yangi usul maktabi Ismoil Gaspirinskiy tashabbusi bilan Samarqandda yo'lga qo'yilgan. SHundan keyin, bunday maktablar Turkistonning barcha joylarida birin-ketin ochila boshladi. Demak bundan ko'rinadiki, Samarqandda 1893-yilda ochilgan maktab dastlabki yangi usul maktab bo'lgan va o'zidan keyingi maktablar uchun dasturul-amal vazifasini o'tagan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1900-yilgacha usuli jadid maktablari tatar muallimlari tomonidan ochilgan va 1900-yil boshlaridan mahalliy ziyolilar ham usuli savtiya maktablari ocha boshlaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-qism. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 269.
2. Xudoyqulov A.M. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX – начало XX вв.). Дисс. канд. ист. наук. – Tashkent, 1995. – S. 78.
3. Abdurashidov Z. Ismoil Gaspirinskiy va Turkistonda jadidchilik // "ИФЕАКнинг иш юритиш ҳужжатлари" seriyasi. 29-son. – Toshkent, 2008. – B. 14.35
4. Alimova D. История как история, история как наука. Феномен джадидизма. II tom. – S. 164.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Samarqand usuli jadid maktabi xususida. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Academnashr, 2018. – B. 230–231.
6. История общественно-культурного реформаторства в Центральной Азии и на Кавказе (XIX – начало XX века). МИЦАИ. – Samarqand–Toshkent, 2012. – S. 168.
7. Fitrat Abdurauf. Рассказы индийского путешественника (Бухара, как она есть). – Tashkent, 2007. – S. 77.
8. Novometodniy maktab v g. Samarqand // Зерафшан gazeta. – Samarqand, 1906. – № 37.
9. Qosimov B. Maslakdoshlar. – T.: Sharq, 1994. – 47-bet.
10. Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent: Akademiya, 1999. – B. 5–10.
11. Normurodova G. Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari). – Toshkent: Yangi nashr, 2013. – B. 214.

[11] Новометодный мактаб в г. Самаркандъ // Зерафшан газеты:Самаркандъ. 1906. № 37.

[12] Алимова Д.А. Рашидова Д.А. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. –Тошкент: Академия, 1999. – Б.5-10.

[13] Нормуродова Г. Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси (XIX аср охири ва XX аср бошлари). -Тошкент: Yangi nashr, 2013. - Б.214.